



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 01 | pp. 34-39 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARI TIZIMIDA ISLOM MOLIYASI MAHSULOTLARINI JORIY ETISH MEKANIZMLARI VA MUAMMOLARI



Safarov Shuhrat Ismatovich

Toshkent xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: Safarov.shuhrat@gmail.com

ORCID: 0009-0008-2722-8562

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot tijorat banklari tizimida islom moliyasi mahsulotlarini joriy etish mexanizmlari hamda ushbu jarayonda yuzaga kelayotgan asosiy muammolarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot natijalari islomiy moliyalashtirishni bank tizimiga samarali integratsiya qilish bo'yicha amaliy takliflarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Islom moliyasi, tijorat banklari, islomiy bank mahsulotlari, shariat tamoyillari, moliyaviy barqarorlik.

Аннотация: В статье рассматриваются механизмы внедрения продуктов исламского финансирования в системе коммерческих банков и основные проблемы данного процесса. Результаты исследования направлены на разработку практических рекомендаций по эффективной интеграции исламских финансов в банковскую систему.

Ключевые слова: Исламские финансы, коммерческие банки, исламские банковские продукты, принципы шариата, финансовая устойчивость.

Abstract: This study analyzes the mechanisms for introducing Islamic finance products in the commercial banking system and the key challenges associated with this process. The findings provide practical recommendations for the effective integration of Islamic finance into the banking sector.

Keywords: Islamic finance, commercial banks, Islamic banking products, Sharia principles, financial stability.

KIRISH

Global moliya tizimida so'nggi o'n yilliklarda kuzatilayotgan muhim tendensiyalardan biri islom moliyasi institutlari va mahsulotlarining jadal rivojlanishi hamda ularning an'anaviy bank tizimi bilan integratsiyalashuv jarayonidir. Bugungi kunda islom moliyasi nafaqat musulmon davlatlarida, balki Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyo mamlakatlarida ham muqobil va barqaror moliyalashtirish modeli sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu modelning asosiy ustunligi real sektor bilan bevosita bog'liqligi, spekulativ operatsiyalarning cheklanishi hamda risklarning adolatli taqsimlanishiga asoslanganligidadir.

Tijorat banklari tizimida islom moliyasi mahsulotlarini joriy etish masalasi, avvalo, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish, bank xizmatlaridan foydalanmayotgan aholining

yangi qatlamlarini jalb etish hamda iqtisodiyotning real sektorini uzoq muddatli va barqaror moliyaviy resurslar bilan ta'minlash nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, foizga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlariga muqobil sifatida foyda va zararlarni taqsimlashga asoslangan islomiy moliyaviy instrumentlar bank tizimining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tijorat banklari faoliyatiga islom moliyasi mahsulotlarini integratsiya qilish jarayoni murakkab institutsional, huquqiy va tashkiliy muammolar bilan chambarchas bog'liqdir. Amaldagi bank qonunchiligi, prudensial me'yorlar, buxgalteriya hisobi va soliq tizimi ko'pincha an'anaviy foizli operatsiyalarga moslashtirilgan bo'lib, islom moliyasining o'ziga xos tamoyillarini to'liq aks ettira olmaydi. Bu holat islom moliyasi mahsulotlarini tijorat banklari doirasida joriy etishda tizimli to'siqlarni yuzaga keltiradi.

Bundan tashqari, islom moliyasi mahsulotlarini muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun malakali kadrlar yetishmasligi, shariat talablariga muvofiqlikni ta'minlovchi institutsional mexanizmlarning rivojlanmaganligi hamda bank mijozlari o'rtasida islom moliyasi instrumentlari bo'yicha yetarli bilim va tushunchaning shakllanmaganligi kabi omillar muhim muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur jihatlar islom moliyasi mahsulotlarining amaliyotda cheklangan darajada qo'llanilishiga olib kelmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklari tizimida islom moliyasi mahsulotlarini joriy etish mexanizmlarini chuqur ilmiy asosda tadqiq etish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida islom moliyasi instrumentlarini an'anaviy bank tizimi bilan uyg'unlashtirishning optimal modelini ishlab chiqish bank sektorining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Islom moliyasi global moliyaviy tizimda muhim o'rin egallash bilan birga, iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shuvchi muqobil moliyalashtirish mexanizmlaridan biri sifatida tan olinmoqda. Islom moliyasi shariat tamoyillariga asoslanib, an'anaviy bank tizimidan keskin farqlanadi. Ushbu sohada olib borilgan dastlabki tadqiqotlardan biri Chapra [1] tomonidan o'rganilgan bo'lib, unda islomiy bank tizimining an'anaviy foizli bank tizimidan ustunligi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli tahlil qilingan. Chapra [1]ning tadqiqotida qayd etilishicha, foiz asosida ishlovchi bank tizimlari inqirozga moyil bo'lsa, islom moliyasi real iqtisodiy faoliyatga asoslanganligi sababli uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi.

Islom moliyasining nazariy asoslarini yanada chuqurroq o'rganish uchun Iqbal va Mirakhor [2] islomiy bank operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligi va moliyaviy inklyuziyaga ta'sirini tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, islom moliyasi bozor mexanizmlarining samarali ishlashiga hissa qo'shishi, xatarlarni teng taqsimlash va spekulativ operatsiyalarni kamaytirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin.

Islom moliyasining asosiy mahsulotlari murabaha, mudaraba, musharaka va ijara bo'lib, har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ahmad va Hassan [3] tadqiqotlarida ushbu moliyaviy vositalarning bank sektori uchun ahamiyati va ularning iqtisodiy ta'siri tahlil qilingan. Ularning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya mahsulotlari

tijorat banklarining moliyaviy xizmatlarini diversifikatsiya qilishga va yangi bozor segmentlarini jalb qilishga imkon beradi.

Boshqa bir tadqiqotda Usmaniy [4] islom moliyasi mahsulotlarining risk va likvidlikka ta'sirini o'rganib, mudaraba va musharaka asosidagi moliyalashtirish usullarining an'anaviy kreditlashdan farqlanishini tahlil qilgan. Uning fikriga ko'ra, ushbu mahsulotlar bank tizimining barqarorligini oshirish bilan birga, iqtisodiyotda tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga yordam beradi.

Malayziya va BAA kabi mamlakatlar islom moliyasi bo'yicha ilg'or davlatlar hisoblanadi. Xususan, Malayziyada islom moliyasi milliy moliya tizimining ajralmas qismiga aylangan. Norhayati [5] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Malayziya tajribasi o'rganilgan va ushbu tizimning samaradorligini ta'minlash bo'yicha huquqiy va institutsional yondashuvlar tahlil qilingan. Unga ko'ra, islom moliyasining muvaffaqiyatli joriy etilishi uchun maxsus tartibga solish va bank tizimining moslashuvchanligini oshirish zarur.

O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar hali nisbatan yangi yo'nalish hisoblanadi. Ammo, Markaziy bank va xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan olib borilgan tahlillar O'zbekistonda islomiy moliyaviy mahsulotlarga talab ortib borayotganini ko'rsatmoqda [6].

Tahlil natijalariga ko'ra, islom moliyasi tijorat banklari uchun muhim innovatsion vosita bo'lib, u moliyaviy diversifikatsiyani ta'minlash, risklarni kamaytirish va moliyaviy inklyuziyani oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda ushbu tizimni muvaffaqiyatli joriy etish uchun huquqiy, institutsional va amaliy jihatlar bo'yicha tizimli yondashuvni ishlab chiqish talab etiladi. Shu sababli, islom moliyasining rivojlanishi uchun davlat va xususiy sektor hamkorlikda ishlashi hamda xalqaro tajribalarni o'rganib, moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqishi zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Islom moliyasining tijorat banklarida joriy etilishi bank tizimining diversifikatsiyasini ta'minlab, muqobil moliyaviy manbalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Islom moliyasining dunyo miqyosida rivojlanish jarayoni turli mamlakatlarda o'ziga xos model asosida shakllangan. Quyidagi jadvalda yetakchi davlatlarning islom moliyasi bo'yicha asosiy yondashuvlari va joriy etish strategiyalari taqdim etiladi.

1-jadval. Islom moliyasini joriy etishning asosiy modellari qo'llagan davlatlar

Mamlakat	Joriy etish modeli	Xususiyatlari	Natijalar
Malayziya	Parallel model (dual banking system)	Islom moliyasi va an'anaviy bank tizimi parallel ravishda ishlaydi. Islomiy banklarga alohida litsenziya beriladi.	Islom moliyasi milliy iqtisodiyotning muhim qismiga aylangan. Bank sektorining 30% islomiy moliyaga to'g'ri keladi.
Turkiya	Islomiy moliyaviy institutlar	Islomiy banklar alohida huquqiy maqomga ega. Foizsiz kreditlash va	Islomiy moliyaviy institutlar iqtisodiyotda faol ishtirok etib, kichik

	(Participation Banks)	investitsion faoliyat yo'lga qo'yilgan.	va o'rta biznesni moliyalashtirishga yordam bermoqda.
Birlashgan Arab Amirliklari	To'liq islomiy bank tizimi	Faoliyat yurituvchi barcha banklar islomiy moliya tamoyillariga asoslanadi. Shariat kengashlari doimiy nazorat olib boradi.	Iqtisodiyotning asosiy qismi islomiy moliya asosida ishlaydi. Moliyaviy bozor diversifikatsiyalangan.
Saudiya Arabistoni	To'liq integratsiyalashgan model	Barcha banklar islomiy moliya tamoyillari asosida ishlaydi. Rasmiy regulyatorlar islomiy moliyani qo'llab-quvvatlaydi.	Moliyaviy barqarorlik yuqori, islomiy bank mahsulotlari investitsiyalarni rag'batlantiradi.

Manba: muallif tomonidan shakllantirilgan

Malayziya va Turkiya dual banking tizimini muvaffaqiyatli qo'llagan bo'lsa, Saudiya Arabistoni va BAA to'liq islomiy moliya modelini tatbiq etgan. O'zbekiston uchun Malayziya modeli mos kelishi mumkin, chunki u parallel ravishda an'anaviy va islomiy bank xizmatlarini taqdim etish imkoniyatini beradi.

Islom moliyasi doirasida turli xil moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqilgan bo'lib, har bir mamlakat o'z iqtisodiy sharoitiga mos holda ularni rivojlantirgan. Quyidagi jadvalda asosiy islomiy moliyaviy vositalar va ularning turli davlatlarda qanday tatbiq etilgani aks ettirilgan.

2-jadval. Islom moliyasi mahsulotlarining joriy etilish tajribasi

Mamlakat	Asosiy islom moliyasi mahsulotlari	Joriy etish usuli	Amaliy natijalar
Malayziya	Murabaha, Musharaka, Sukuk	Shariatga mos kreditlash, obligatsiyalar chiqarish	Sukuk bozori jadal rivojlangan, banklar real sektorni moliyalashtirishni oshirgan.
Turkiya	Murabaha, Ijara, Takaful	Tijorat banklari orqali islomiy moliyaviy xizmatlar	Mijozlar uchun moslashuvchan foizsiz moliyaviy mahsulotlar mavjud.
Indoneziya	Musharaka, Mudaraba, Sukuk	Islomiy banklar va kapital bozor integratsiyasi	Islom moliyasi mamlakatda investorlar uchun jozibador bo'lib bormoqda.
BAA	Ijara, Salam, Istisna	To'liq islomiy bank tizimi orqali moliyalashtirish	Foizsiz kreditlash keng tarqalgan, islomiy sug'urta tizimi rivojlangan.

Manba: muallif tomonidan shakllantirilgan

Malayziya va Indoneziya islomiy obligatsiyalar – sukuk bozorini rivojlantirishga katta e'tibor bergan bo'lsa, Turkiya va BAA foizsiz moliyaviy xizmatlar va sug'urta (takaful) tizimiga urg'u bergan. O'zbekiston sharoitida sukuk bozori va shariatga mos kreditlash mexanizmlarini joriy etish istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda islom moliyasini rivojlantirish bo'yicha quyidagi strategik yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi. Quyidagi jadvalda tijorat banklari uchun asosiy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari bayon etiladi.

3-jadval. O'zbekistonda islom moliyasini joriy etishdagi muammolar va yechimlar

Muammo	Tahlil	Taklif etilayotgan yechimlar
Tijorat banklarining tayyorgarligi past	Hozirda bank tizimi islomiy moliyaviy xizmatlarga moslashmagan.	Islom moliyasi bo'limlarini ochish, kadrlar tayyorlash dasturlarini joriy etish.
Aholining xabardorlik darajasi past	Ko'pchilik islom moliyasining tamoyillari va afzalliklari haqida yetarlicha ma'lumotga ega emas.	Aholi va tadbirkorlar uchun ma'rifiy kampaniyalar tashkil etish.
Moliyaviy infratuzilmaning rivojlanmaganligi	Sukuk va takaful bozori yo'q, islomiy investitsiyalar tizimi mavjud emas.	Islomiy kapital bozorini shakllantirish, sukuk chiqarishni yo'lga qo'yish.

Manba: muallif tomonidan shakllantirilgan

O'zbekistonda islom moliyasini joriy etishda asosiy muammolar huquqiy bazaning mavjud emasligi, tijorat banklarining tayyorgarligi va aholining yetarlicha bilimiga ega emasligi bilan bog'liq. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun maxsus qonunchilikni ishlab chiqish, bank infratuzilmasini moslashtirish va aholining xabardorlik darajasini oshirish muhim strategik yo'nalishlar hisoblanadi.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, islom moliyasini muvaffaqiyatli joriy etish uchun huquqiy, institutsional va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish talab etiladi. O'zbekiston uchun Malayziya modeliga asoslangan parallel tizim yaratish eng maqbul yondashuv bo'lishi mumkin. Shuningdek, islomiy obligatsiyalar – sukuk bozorini shakllantirish, tijorat banklarida islomiy moliya bo'limlarini tashkil etish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha tizimli choralar ko'rish zarur.

TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari tizimida islom moliyasi mahsulotlarini joriy etish jarayoni bank sektorini diversifikatsiya qilish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda real sektorni uzoq muddatli moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim strategik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu jarayonning samaradorligi bevosita huquqiy-me'yoriy baza, institutsional tuzilma, kadrlar salohiyati va moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasiga bog'liqdir. Amaldagi bank qonunchiligi va prudensial me'yorlarning asosan foizli operatsiyalarga yo'naltirilganligi islom moliyasi mahsulotlarini joriy etishda tizimli cheklovlarni yuzaga keltirmoqda, bu esa mazkur yo'nalishda kompleks va bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirish zaruratini taqozo etadi.

Mazkur sharoitda, tijorat banklari faoliyatida islom moliyasini rivojlantirish maqsadida, avvalo, huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish va uni shariat tamoyillariga moslashtirish muhim hisoblanadi. Xususan, islom moliyasi mahsulotlarining huquqiy maqomini aniq belgilash, ularni hisobga olish va soliqqa tortish mexanizmlarini soddalashtirish hamda prudensial nazorat tizimiga moslashtirish zarur. Shu bilan birga, tijorat banklari huzurida mustaqil Shariat kengashlarini tashkil etish yoki markazlashgan Shariat nazorati institutini joriy etish islomiy moliyaviy operatsiyalarning shaffofligi va ishonchliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, tijorat banklarida islom moliyasi mahsulotlarini joriy etishning samarali mexanizmi sifatida "parallel bank modeli" yoki "islomiy oynalar (Islamic windows)" tizimini bosqichma-bosqich rivojlantirish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi. Ushbu yondashuv banklarga mavjud infratuzilma va resurslardan foydalanish orqali islomiy moliyalashtirishni joriy etish imkonini berib, moliyaviy risklarni minimallashtiradi. Shu bilan birga, mahsulot qatorini murabaha, ijara, mushoraka va mudaraba kabi real aktivlarga asoslangan instrumentlar hisobiga kengaytirish banklarning kredit portfelini sifat jihatdan yaxshilashga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, tijorat banklari tizimida islom moliyasi mahsulotlarini joriy etish faqat muqobil moliyalashtirish manbaini yaratish bilangina cheklanmay, balki bank tizimining barqarorligini oshirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish hamda investitsiya jarayonlarini faollashtirishning muhim omiliga aylanadi. Mazkur tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar islom moliyasini rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqishda, bank-moliya tizimini isloh qilishda hamda kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chapra, M. U. (2008). *The Islamic Vision of Development in the Light of Maqasid al-Shari'ah*. Islamic Research and Training Institute.
2. Iqbal, Z., & Mirakhor, A. (2011). *An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice*. John Wiley & Sons.
3. Ahmed, H., & Hassan, M. K. (2020). *Islamic Finance: Principles and Practice*. Cambridge University Press.
4. Usmani, M. T. (2002). *Introduction to Islamic Finance*. Karachi: Idaratul Ma'arif.
5. Norhayati, M. (2018). *Islamic Banking and Financial Growth in Malaysia: A Policy Perspective*. Asian Economic Journal, 32(2), 234-256.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

